



Received: August 2, 2024
Accepted: September 22, 2024
Available online: September 25, 2024

Shohruh Jo‘rayev

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

RASMIY HUJJATLARDA SHAXSNI BILDIRUVCHI LOTINCHA VA YUNONCHA LEKSEMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

O‘zbek va ingliz tillari bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillar tizimiga mansub bo‘lsa ham, mazkur tillarning lug‘at boyligida o‘xshashliklar mavjud, jumladan, lotincha va yunoncha o‘zlashmalar har ikki tilning leksikologiyasida o‘ziga xos o‘ringa ega. Mazkur mavzuda bir qancha ingliz, rus va o‘zbek olimlarining nazariy-tahliliy yondashuvlari o‘rganilib, maqolada rasmiy hujjatlardagi lotincha va yunoncha leksemalarning o‘zbek va ingliz tillaridagi semantik xususiyatlari tahlil qililgan.

Maqolada lavozim va kasbga aloqador o‘zlashmalarining o‘zbek va ingliz tillarida bir va ko‘p ma‘nolilik jihatlarini tahlil qilish maqsad qilib olingan. Shu jumladan, quyidagi vazifalar belgilangan: (1) o‘zlashmalar etimologiyasini ishonchli resurlarga tayanib o‘rganish, lotincha va yunoncha o‘zlashmalarni farqlash; (2) vositachi tillarni aniqlash va ularning retsipyent tillarda o‘zlashmalar semantikasiga nisbatan ta’sirlarini tahlil qilish; (3) ma‘no domeniga ko‘ra muayyan semantik guruhlarga ajratgan holda tadqiqot olib borish; (4) o‘zlashmalarining o‘zbek va ingliz tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlarini rasmiy matnlar kontekstiga asosan tahlil qilish.

Maqolada o‘zbek tilidagi rasmiy hujjatlar O‘zbekiston qonunchiligida belgilab qo‘yilgan va rasmiy janrga mos tushuvchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, bir qator davlat idoralari hujjatlari, ingliz tilida – Buyuk Britaniya,

Shohruh Juraev

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: shjuraevphd@gmail.com
ORCID iD: 0009-0004-7427-3631

SEMANTIC FEATURES OF LATIN AND GREEK VOCATIVE LEXEMES IN OFFICIAL DOCUMENTS

ABSTRACT

Although Uzbek and English are not genetically related, there exist differences and similarities in their vocabularies. Latin and Greek borrowings play a significant role in developing both languages. In this regard, various linguists’ scientific perspectives are compared and examined, and an analysis has been conducted on how these features have been semantically explored thus far.

The research aimed to investigate polysemy in loanwords of vocative lexemes. Furthermore, the following objectives were established for analysis: (1) to examine the etymology of loanwords and distinguish Latin and Greek loanwords; (2) to identify intermediary languages and their effects on meanings in recipient languages; (3) to conduct research on a specific semantic domain; (4) to analyze the similarities and differences of lexemes based on the context of official texts.

In this study, official state documents, specifically the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan, and in English, the laws, orders, and decisions issued by the highest authorities of countries such as Great Britain and the United States of America, are designated as the object of investigation. Contrastive analysis is employed as a method to compare the features of monosemy and polysemy of the borrowings in both languages.

The findings indicated that the English language is geographically and genealogically closer to the Latin and Greek languages, and the proportion of lexical units borrowed from these languages is substantially higher than

AQSh, Avstraliya kabi hukumat ishlari ingliz tilida yuritiluvchi davlatlarning yuqori organlari tomonidan e'lon qilingan qonunlar, memorandum, buyruq va qarorlar tadqiqot obyekti sifatida belgilab olingan hamda chog'ishtirma tahlil yordamida har ikki tilda o'zlashmalarning ma'no xususiyatlaridagi monosemiya va polisemiya o'rganilgan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz tili ham geografik, ham geneologik jihatdan lotin va yunon tillariga yaqinligi, mazkur tillardan o'zlashgan leksik birliklar salmog'iga ko'ra o'zbek tiliga qaraganda ancha yuqori. Lotincha va yunoncha o'zlashmalarning hozirgi ma'no ifodalari o'zbek va ingliz tillarida farqlanishi, o'zlashgan leksemaning ilk variantlarida qanday sohalarda qo'llanilganligi bilan bog'liq jihatlari, semantik farqlanishda esa vositachi tillarning ta'siri mavjud ekanligi, bir tilda faol foydalaniladigan so'zlar ikkinchi tilda kam uchraydi hamda ko'p hollarda ularning sinonimik ekvivalentlaridan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: o'zlashmalar, donor til, retsiyent til, semantik guruhlar, polisemiya, monosemiya, etimologiya, vositachi til, rasmiy janr.

KIRISH

Har qanday tilning lug'at boyligi rivojida boshqa tillarning o'ziga xos o'rni mavjud. Tillar leksikonining ortib borishi, bir tilda so'zlashuvchi shaxs yoki xalqning boshqa tilli jamiyatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari sabab yuzaga keladi. Shu jumladan, o'zbek tili lug'ati ham asrlar mobaynida qardosh va qardosh bo'lmagan tilli madaniyatlar bilan uzviy kontaktlar sabab shakllanib bormoqda [Rahmatullayev, 2006; 105]. Tilshunoslikda bir tildan ikkinchi tilga ko'chgan leksik birliklar o'zlashma qatlam yoki o'zlashmalar deb yuritiladi. Xususan, leksema olingan til – donor til, leksemani o'zlashtirgan til esa retsiyent til deb ham yuritiladi, bundan tashqari o'zlashma so'z donor tildan retsiyent tilga ba'zi holatlarda to'g'ridan to'g'ri kirib kelsa, ba'zida bir necha til orqali ko'chib o'tadi, o'rtadagi tillar esa – vositachi tillar deb yuritiladi. Qayd etish joizki, ingliz tili ham xuddi ona tilimiz kabi turli tarixiy aloqalar sababli lotin, fransuz, skandinav kabi tillardan o'zlashgan so'zlar hisobiga asrlar mobaynida kengayib borgan [Hogg & Denison, 2006; 1]. Lingvistikada o'zlashmalar alohida obyekt sifatida leksikologiya bo'limida terminologiya, lug'atshunoslik, neologizmlar bilan bir qatorda chambarchas o'rganilmoqda. Chunki, hozirgi adabiy tilimizda uchrovchi neologizmlar va terminlarning aksariyati xorijiy tillardan o'zlashgan leksemalar tashkil qiladi.

Ingliz tilshunosligida o'zlashmalar, ularning nazariy xususiyatlari bilan bog'liq holatlar U.Vaynrayx, E.Xaugen, M.S. Serjentson va F.Durkin kabi tilshunoslar

in the Uzbek language. The research revealed differences between the current meanings of Latin and Greek borrowings in Uzbek and English languages, aspects related to the fields in which the borrowed lexemes were initially used, and the influence of intermediary languages on semantic differentiation. Additionally, it was observed that words actively used in one language are infrequently employed in the other, with their synonymous equivalents being utilized in most instances.

Key words: borrowings, donor language, recipient language, semantic fields, polysemy, monosemy, etymology, intermediary language, official genre.

tomonidan chuqur o'rganilgan, rus tilshunosligida D.S. Lotte, Yu.S. Sorokin, L.P. Krisin, R.A. Budagov kabi olimlar bu masalada ilmiy-nazariy yondashuvlari bilan o'rin tutgan. O'zbek tili taraqqiyotida o'zlashmalar tadqiqotida O.Usmonov, R.Daniyorov, F.Abdullayev, Sh.Rahmatullayev, H.Dadaboyev kabi tilshunoslarimiz bir qancha ilmiy ishlar olib borgan. Jumladan, F.Abdullayev tilimizdagi ruscha-internatsional leksikaning rivoji 1930-yillardan boshlab ilm-fan taraqqiyotining o'sib borishi, va qator fanlarning rivojlanish tasirida o'zbek tili lug'atchiligiga rus va Yevropa tillaridan termin va frazeologik birliklarning kirib kelish jarayonlariga to'xtalgan [Abdullayev, 1972].

Sh.Rahmatullayev o'zbek tilidagi o'z va o'zlashma qatlam haqidagi nazariy qarashlarida, lotincha, yunoncha, fransuzcha va boshqa yevropa tillaridan o'zlashmalarning rus tili vositachiligida kirib kelish jarayoniga urg'u berarkan, o'zlashmalarning struktur xususiyatlariga vositachi til ta'siri haqida ham misollar keltirib o'tadi [Rahmatullayev, 2006; 107]. H.Dadaboyev terminologiya haqidagi risolasida ilmiy-texnikaviy terminologiya adabiy o'zbek tilida keng ko'lamda mavjudligiga to'xtalarkan, bunga sabab sifatida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, va mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan, tilimiz leksikologiyasida o'zlashmalarning kirib kelish jarayoni jadallashuvini respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, kundalik turmushning turli jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog'liqligini keltirgan [Dadaboyev, 2020; 51]. Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy adabiyotlar o'zbek tilidagi lotincha va yunoncha leksemalarning muayyan etimologik jarayoni va semantik maydon (ba'zi manbalarda semantik domen deb ham yuritiladi) doirasida ma'nolari adabiy til normalarida keng ochiq qolmagan. Shu asnoda, mazkur maqolada shaxsni anglatuvchi lotinizm va yunonizmlarning o'zbek va ingliz tilidagi ko'pmalilik (polisemantik) va birma'nolilik (monosemantik) holatlarini, o'xshash va farqli aspektlarini o'rganib chiqish vazifasini qo'ydik. Maqolada belgilangan maqsadlar: o'zlashmalarning etimologiyasi, lotincha va yunoncha o'zlashmalarni farqlash, vositachi tillarni aniqlash, ma'no domeniga ko'ra ma'lum bir semantik guruhda tadqiq etish, va ingliz tilidagi ayni o'zlashmalar bilan o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish belgilab qo'yilgan.

Lotinlashtirish va yunonlashtirish hodisalarining aksariyati tilimizga to'g'ridan to'g'ri kirib kelmagan, bunda vositachi rolini rus tili bajarib bergan. Shuning uchun ham, tilimizdagi aksariyat lotincha va yunoncha o'zlashmalarning shakli va talaffuzi rus tilining fonetik va morfologik qoidalari asosida o'zlashganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, o'zbek tilida *kontsepsiya*, *tsivilizatsiya* kabi so'zlar kirill alifbosidagi "ц" harfini lotin alifbosida "ts" harflari bilan ifodalanish holatlari. Bunday jarayon, so'z o'zlashtirishda yuqori tilning quyi tilga ta'siri sifatida qaraladi, ya'ni bir jamiyatda mavjud ikki tildan biri dominant vazifasini bajarishi va shu tilning xususiyatlari quyi til normalariga ko'chishi bilan izohlanadi [Bloomfield, 1933; 461]. F.Durkin agar vositachi til orqali o'zlashgan so'zlarda tashqi va ichki shakl o'zgarishsiz retsiyent tilga ko'chgan bo'lsa, bunday holatda o'zlashma vositachi til orqali o'zlashgani so'roq ostida qoladi degan fikrni ilgari surgan [Durkin, 2009; 140].

Soʻz oʻzlashtirishda maʼlum bir termin yoki neologizmning maʼnosi yoki maʼnolari donor va retsiyent tillarda bir xil semantika kasb etishi mumkin, keyinchalik oʻzlashmalarning retsiyent tilda konnotativlik ham hosil qilib boradi [Lotte, 1982; 17]. Oʻzlashmalarning semantik farqlanib borish sabablari D.S. Lotte tomonidan quyidagicha nazariyalar bilan izohlangan:

- Maʼlum bir termin maʼnosining oʻzgarishi asliyatdagi soʻz ifodalagan tushunchaning oʻzgarishi bilan bogʻliq.

- Maʼlum bir davrda bir termin maʼnosining tubdan oʻzgarishi, bunda maʼlum bir davrda qandaydir yangi tushuncha yaralishi natijasida, eski tushunchaning maʼno kasb etishi ham tubdan oʻzgarishga yuz tutadi.

- Biror bir termin yoki soʻzda yangi maʼnoning hosil boʻlishi – bunday holatda termin boshqa sohalarga qoʻllanilib boshlanadi, va yangi tushuncha anglatadi. Masalan, *morfologiya* ilk bor biologiya fanida qoʻllanilgan termin boʻlsa, hozirda tilshunoslikda ham mavjud;

- Soʻz maʼnolari orasidagi buzilish – bir leksik birlikning ham alohida termin sifatida va soʻz birikmali terminning bir qismi sifatida qoʻllanilishi. Masalan, *kuch* soʻzi alohida termin sifatida qoʻllanilishi va soʻz birikmasida: *zarba kuchi (impuls)* [Lotte, 1982; 17].

TADQIQOT METODLARI

Oʻzlashmalarning ingliz va oʻzbek tillarida semantik xususiyatlaridagi oʻxshash va farqli jihatlarini mavjud materiallar bilan tahlil qilish chogʻishtirma tilshunoslik (kontrastiv lingvistika) metodlariga asosan olib borildi.

Maqolada ikki tildagi turli farqlanishlarni va oʻxshash semantik maʼnolarni oʻrganishda tilshunoslikda keng qoʻllaniladigan chogʻishtirma metodidan (baʼzi manbalarda “*kontrastiv metod*” deb ham yuritiladi) foydalanildi. Sababi, chogʻishtirma tahlil metodida kamida ikki tildagi maʼlum bir lingvistik maydondagi til aspektining tahlili tillar oʻrtasidagi shakliy va funksional farqlarni ochib berish vositasi sanaladi [Gast, 2012; 3]. Jumladan, V.Gast “tahlil jarayonida tadqiqot materiallarining har ikkala tilda ham yetarlicha mavjudligi, tahlil natijalariga keng va ishonchli xulosalar yasashda muhim rol kasb etishini” taʼkidlaydi [Gast, 2012; 5].

M.Xaspelmat chogʻishtirma tahlil jarayoni nafaqat maʼlum tillar doirasidagi distinktiv xususiyatlarini ochib berishi, qolaversa, bir-birdan farqlanuvchi tillardagi maʼlum oʻxshash shakllar va funksiyalarning qiyosiy tahlili ham chogʻishtirma tilshunoslikning vazifasi ekanligini ilgari suradi. Bunday holatda M.Xaspelmat har bir tilshunos obyektini va predmetidan kelib chiqib taqqoslanayotgan til kategoriyasi uchun oʻziga mos qiyosiy konsept ishlab chiqishi va shu asnoda tadqiqot tahlillarini olib borishi kerakligini koʻrsatib bergan [Haspelmath, 2010; 665].

Yuqorida tavsiflangan tadqiqot metodi konsepsiyadan kelib chiqqan holda, tadqiqot obyektini belgilab olishda vazifaviy uslub turlaridan rasmiy janrdagi rasmiy janrda yoziladigan rasmiy hujjat turlari belgilab olingan. Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisidagi” 682-son Qonuniga asoslanib [OʻzRes OʻRQ-682-son Qonuni, 2021], rasmiy

hujjatlar janriga to‘laqonli mos keluvchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlaridan iborat o‘zbek tilidagi mustaqillik davri qamrovidagi turli sohalarga oid (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fan-texnika va sh.k) 80dan ortiq hujjat matnlari va ingliz tilidagi AQSh Konstitutsiyasi, AQSh Kongressi va Buyuk Britaniya parlamenti qonun hujjatlari (inglizchada: *bills and acts*), AQSh prezidentlarining va Buyuk Britaniya bosh vazirlarining memorandumlari, buyruqlari (inglizchada: *executive orders*) va qarorlaridan (inglizchada: *proclamation*) iborat 28ta hujjat matni tadqiqot uchun saralab olindi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Mazkur maqolada lotincha va yunoncha o‘zlashmalarni aniqlashda leksik birliklar va terminlarning etimologiyasiga yuqori aniqlik bilan yondashish maqsadida o‘zbek va ingliz tillaridagi ishonchli manbalar foydalanildi, jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va hozirda dunyodagi eng katta lug‘at “Oxford English Dictionary” (OED) bazalaridan foydalanilib, obyekt matnlarida o‘zlashma leksikonlar o‘rganildi. Maqola predmeti vazifasidan kelib chiqib, 200dan ortiq lotincha va yunoncha o‘zlashmalarning shaxs nomlarini ifodalovchi kasbga oid mansab, lavozim va unvon terminlari ro‘yxati shakllantirildi. Jumladan, aniqlangan lotincha o‘zlashmalar: *prezident, senator, deputat, prokuror, advokat, student, magistr, rektor, prorektor, direktor, aspirant, rezident, ekspert, inspektor, kriminalist* otlari; yunonchadan o‘zlashgan shaxsni anglatuvchi leksemalar: *pedagog* va *psixolog* otlari. Tadqiqot predmeti hozirgi o‘zbek va ingliz tillaridagi bir xil etimologik leksemalarning ma‘nolaridagi o‘xshash va farqli jihatlari tahlili sababli, lotincha va yunoncha o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga kirib kelish tarixi va vositachi tillar bilan bog‘liq xususiyatlariga yetarli darajada ishonchli ilmiy manbalar topilmaganligi sababli leksemalarning tashqi shakli orqali (fonetik va morfologik) xulosa yasaladigan gipotezalarga ko‘p o‘rinlarda to‘xtalmadik. Jumladan, quyida mazkur o‘zlashma terminlarning tadqiqot vazifasida ko‘rsatilgan ikki tildagi kontrastiv tahlillariga batafsil to‘xtaldik:

Prezident termini lug‘atlarda quyidagicha izohlangan: a) respublika tizimi o‘rnatilgan davlatlarda eng oliy lavozim, davlat rahbari; b) ilmiy muassasa, tashkilot yoki biror bir jamiyat rahbari; d) firma, bank, kompaniyalarda yuqorida turuvchi mansabdor shaxs [Madvaliyev, 2006b]. *Prezident* so‘zi yuqoridagi har qanday holatda ham yuqorida turuvchi yagona rahbarni anglatadi. Tarixan mazkur so‘z lotin tilida ‘praesident’ shaklida ishlatilib, ingliz tilidagi manbalarda XI–XV asrlar matnlarida qo‘llanila boshlanganligi, lotin tilidan fransuz tili orqali ingliz tiliga ‘president’ shaklida qabul qilinganligi keltirilgan. Lug‘aviy ma‘nosi oldinda turuvchi deb tarjima qilinib, lotincha *prae* – oldin, *sidere* – o‘tirmoq, joylashmoq ma‘nolaridan hosil qilingan. O‘zbek tilidagi rasmiy hujjatlarda (a) qatordagi izohi bo‘yicha mustaqillikdan keyin mamlakatimizda respublika boshqaruvi tizimi joriy qilingach, qonunchilik hujjatlarida foydalanib kelinmoqda. Masalan, “O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u

saylagan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin” [O‘zRes Konstitutsiyasi, 2023]. Prezident termini lotin tilidan o‘zlashgan bo‘lsa ham, mazkur so‘z ilk bor davlat rahbarini ifodalovchi ma’nosida ilk bora 1774-yildan boshlab AQShdagi Kongress hujjatlarida qo‘llana boshlangan. Hozirga kelib esa, dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlari rahbarlari rasmiy ravishda mazkur lavozim bilan yuritiladi [Bodette & Lindholm, 2016]. O‘zbek va ingliz tillarida bir xil semantik ma’noda qo‘llaniladi va yuqorida keltirilgan (a), (b), (d) qatorlardagi izohlarga mos ravishda ma’nolar ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi AQSh hukumati qarorida ham, “president” davlat rahbari ma’nosini ifodalagan: “*By virtue of the authority vested in me as President by the Constitution and laws of the United States...*” [Memorandum for the USTR, 1995].

Senator – parlamentning yuqori palatasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yuqori palatasi “senat” deb ham yuritiladi) vakili [Madvaliyev, 2007]. Mazkur lavozim qadimgi Rim davridan ma’lum bo‘lib, Antik Rim davlatining boshlanishidan qulashiga qadar davlat boshqaruvida avtoritet lavozimlardan biri hisoblanib kelgan. *Senator* termini lotin tilidan boshqa yevropa tillariga original shaklini saqlagan holda o‘zlashgan. Termining zamonaviy semasining tarixi ham AQShda 1789-yildan boshlab senat saylovlariga borib taqaladi [“Senate”, 2024]. Hozirgi kunda parlamentar tizimga ega davlatlarning aksariyatida mazkur lavozim mavjud bo‘lib, qonun hujjatlarini o‘rganib chiqish, ma’qullash va tasdiqlash kabi vazifalar bilan shug‘ullanadi. Quyida o‘zbekcha va inglizcha rasmiy hujjatlardan keltirilgan misollar orqali ham “senator” so‘zining har ikkala tilda bir xil ma’no ifodalashini kuzatishimiz mumkin:

1. *Senators may propose amendments to any portion of the bill at any time it is pending...* [Congressional Research Service, 2016] / Muallif (Sh. J.) tarjimasi: Har qanday vaqtda senatorlar ko‘rib chiqilayotgan qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar taklif qilishi mumkin.

2. *Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart* [O‘zRes Konstitutsiyasi, 2023].

Yuqoridagi misollarda “senator” so‘zining monosemantik holati saqlanib, faqat tashqi shaklida ingliz va o‘zbek tillarining grammatik qonuniyatlari sababli morfologik o‘zgarishlarda (ko‘plik shakli ingliz tilida “s” va o‘zbek tilida “lar” suffikslari bilan yasalgan) farqni kuzatishimiz mumkin.

Deputat so‘zi o‘zbek tilidagi izohli lug‘atda ‘vakil, vakolatli davlat organiga saylangan kishi, parlament a‘zolari shu nom ostida ataladi’ ifodasi bilan berilgan. Holbuki, ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda masalan, AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniya parlamentlarida mazkur termin bilan yuritiluvchi lavozim nomi o‘rniga sof inglizcha “*house representative*” va “*member of parliament*” so‘zlaridan foydalaniladi. Inglizcha *deputy* so‘zi etimologiyasi lotincha “*deputatus*” so‘ziga borib taqalsa ham, hozirda “o‘rinbosar” ma’nosida qo‘llanilib, muayyan mansab yoki lavozimni anglatmaydi [Merriam-Webster, n.d.]. Deputat so‘zining ayni shakli o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelganini taxmin qilishimiz mumkin, Yevropaning ko‘plab

mamlakatlarida, xususan, Rossiya, Ispaniya kabilarda parlamentning quyi palatalari deputat soʻzidan foydalaniladi [“Deputat”, 2024]. Oʻzbek tilidagi rasmiy hujjatlarda deputat soʻzi xalq, parlament, Oliy Majlis, viloyat, tuman va shahar kengashi kabi soʻzlar bilan birikib keladi va alohida ishlatiladi. Har qanday holatda ham deputat lavozimi xalq tomonidan saylab qoʻyilgan va qonunlar tayyorlashda faoliyat yurituvchi vakolatli shaxsni ifodalaydi. Masalan, *“tovar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun dehqon (fermer) xoʻjaliklariga beriladigan yer uchastkalarining miqdorlarini xalq deputatlari rayon Kengashlari yoki ularning topshirigʻiga binoan rayon ijroiya qoʻmitalari belgilaydi”* [OʻzRes PF-295-son Farmoni, 1991].

Prokuror – lotinchadan oʻzlashgan termin boʻlib, etimologiyasi *“procurare”* soʻziga borib taqaladi va toʻgʻridan toʻgʻri tarjimasida *“gʻamxoʻrlik qilmoq”* maʼnosini ifodalaydi. Antik Rimda *“prokurator”* lavozimi mavjud boʻlib, davlat yoki maʼlum bir provinsiyada moliyaviy masalalar (soliq yigʻish, audit va shu kabilar) bilan shugʻullangan [“Procurator”, 2024]. Hozirda mazkur termin D.S. Lotte tomonidan keltirilgan (b) qatoridagi semantik oʻzgarishiga yuz tutganini koʻrishimiz mumkin va rasmiy maqomda *prokuror* termini qonunlarga amal qilinishi va ularning toʻgʻri qoʻllanishi ustidan davlat nazorati olib boruvchi mansabdor shaxslar nazarda tutiladi [Madvaliyev, 2007]. Masalan, *“Oʻzbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniqlik va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Oʻzbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga boʻysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi”* [OʻzRes Konstitutsiyasi, 2023]. Termin talaffuzidagi urgʻuning soʻnggi boʻgʻinga tushishidan, ehtimol, u lotin tilidan oʻzbek tiliga rus tili vositachiligida oʻzlashgan. Rasmiy hujjatlarda prokuror soʻzining polisemantik xususiyatlari aniqlanmadi. Mazkur oʻzlashma ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar rasmiy hujjatlarida *“prosecutor”* va *“procurator”* koʻrinishlarida uchraydi (etimologik jihatdan bu soʻzlar ham lotin tilidan oʻzlashgan). Shuningdek, koʻplab rasmiy hujjatlarda *prosecutor* soʻzi oʻrnida *“attorney”* sinonimi ham qoʻllaniladi: *“Coordination among law enforcement agencies, prosecutors, child protective services, social services, health care services, and any other services determined to be appropriate by the Attorney General to provide assistance regarding the problems of children described in subsection (a)”* [U.S. GPO, 2006] / Muallif (Sh.J.) tarjimasini: Qonunni muhofaza qiluvchi agentliklar, prokurorlar, bolalarni himoya qiluvchi xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar, sogʻliqni saqlash xizmatlari, va Oliy Sud tomonidan belgilangan boshqa turdagi xizmatlar uygʻunlikda (a) qatorida koʻrsatilgan bolalar muammolarini hal etishda yordam beradi.

Advokat – yordamga chaqirish; sudda javobgarga huquqiy yordam (maslahat) beruvchi, javobgar (aybdor)ni himoya qiluvchi, oqlovchi yurist [Madvaliyev, 2006a]. Oʻzlashma tarixiga nazar solsak, hozirgi semasida Yevropa sud hujjatlarida XII–XIII asrlardan ishlatilib boshlangan [“Advocatus”, 2024]. Soʻz etimologiyasi lotincha *“advocatus”* soʻzidan kelib chiqqan va lugʻaviy tarjimasini *“yordamga chaqirish”* maʼnosini ifodalaydi. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 24-bob 142-moddasida keltirilgan quyidagi matnda ham advokat soʻzi yuqorida izohlangan maʼnoni ifodalashini koʻrishimiz mumkin: *“Advokat oʻz kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yoʻl qoʻyilmaydi. Advokatga oʻz*

himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi" [O'zRes Konstitutsiyasi, 2023]. Hozirda ingliz tilida "advocate" so'zi polisemiya hisoblanib, quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) ijtimoiy-siyosiy tartiblarni qo'llab quvvatlovchi; 2) sudda himoyalovchi, ya'ni o'zbek tilidagi advokat unvonida va 3) tartib va qoidalarni himoya qiluvchi shaxs. Tahlil maqsadi va jarayonidan kelib chiqib, ingliz tilli davlatlarning rasmiy hujjatlarida advokat lavozimiga teng ma'noda "lawyer", "attorney", "solicitor" va "barrister" so'zlari keng qo'llanilishi aniqlandi va bir holatda – Shotlandiya hukumati hujjatlarida o'zbek tilidagi *advokat* termini semasiga ekvivalent "solicitor advocate" so'z birikmasidan foydalanish tartibi mavjudligini kuzatdik: "*The CPD process will include annual monitoring undertaken by the Society to ensure that the CPD being undertaken by Solicitor Advocates is suitably focussed*" [UK PGA, 2024].

Fan va ta'lim bilan bog'liq o'zlashmalarning ham tilimizda o'rni ancha katta bo'lib, bunga asosiy sabab sifatida rus mustamlakasidan keyin O'rta Osiyoda eski o'zbek usulidagi maktab-madrasalar o'rniga yevropa-rus tizimiga xos maktab, kollej va universitet tizimlarining joriy qilinishi bilan bog'liq. Quyida aynan yunon va lotin tillaridan o'zlashgan leksik birliklarning o'zbek va ingliz tilida ma'nolaridagi o'xshashliklar va farqlarini tahlil qilamiz:

Student – qunt bilan o'rganuvchi, shug'ullanuvchi [Madvaliyev, 2007]. Lotincha "studens" so'zidan o'zlashgan mazkur termin tilimizdagi talaba so'zi bilan bir xil ma'noda qo'llaniladi va ingliz va o'zbek tillarida o'zlashma-sinonim xususiyatini ifoda etadi. Asliyatda "talaba" so'zi ham arabchadan o'zlashgan leksik birlik bo'lib, XX asr boshigacha bo'lgan davr madrasalarida ta'lim oluvchi o'quvchilarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoda universitet va institutlar joriy etilishi bilan *student* termin mazkur o'quv dargohlarida ta'lim oluvchilarga nisbatan keng foydalanilib boshlangan, hozirda esa talaba va student so'zlari parallel ravishda oliy o'quv yurtlarining o'quvchilariga nisbatan foydalaniladi ["Talaba", 2024]. Quyida keltirilgan o'zbekcha va inglizcha matnlarda student so'zining rasmiy janr kontekstlarida bir xil semantik ma'no anglatishi kuzatildi:

1. "*Oliy o'quv yurtlari studentlarining, texnikumlar hamda respublika hukumatining qarorlariga binoan kiyim-kechak va ovqat bilan ta'minlanmayotgan hunar-texnika bilim yurtlari talabalarining stipendiyalari 1992-yilning 1-yanvaridan boshlab o'rta hisobda 2,2 baravar oshirilib, imtiyozli ovqatlanishga qo'shimcha haq avvalgi miqdorda saqlab qolinsin*" [O'zRes PF-306-son Farmoni, 1991].

2. "*An applicant who is applying for permission to stay and has, or lasthad, permission as a Student, must fulfil one of the Conditions A or B below on the date of application:...*" [UK IR, 2023].

Magistr so'zi lotinchada "magister" shaklida o'rta asrlar Yevropasida murabbiy, ustoz ma'nolarida qo'llanilgan termin. Ba'zi mamlakatlarda, xususan O'zbekistonda bakalavr darajasiga ega bo'lgandan keyingi bosqich oliy ta'lim kursi bo'lib, dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga beriladigan daraja va shu daraja egasi [Madvaliyev, 2006b]. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi "Magistratura to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 36-

son qarorida keltirilgan matnda yuqorida izohlangan semani ifodalaydi: “...2007-yil 10-sentabrdagi 190-son qaroriga muvofiq hamda oliy ta’lim muassasalarida magistrlar tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi...” [O‘zRes VMQ-36-son qarori, 2015]. Mazkur termin o‘rta asrlar Yevropa universitetlarida dars beruvchi o‘qituvchilarga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, keyinchalik bakalavrdan keyingi ta’lim darajasi ham magistr so‘zi bilan atalgan, va ko‘plab yevropa tillarida mazkur darajaga ega shaxslarni shunday atash urf bo‘lib kelgan. Ingliz tilli davlatlarda *magistr* so‘zining boshqa lotincha sinonimi “master” so‘zi keng qo‘llaniladi: *master’s degree* [“Magister degree”, 2024]. Ammo shaxsga nisbatan ilmiy darajaga ega o‘qituvchilarga nisbatan “master” yoki “magister” so‘zlaridan foydalanish ingliz tilidagi rasmiy hujjatlarda kuzatilmadi.

Aspirant – [lot. *Aspirans, aspirantis*] lotin tilidan o‘zlashgan va lug‘aviy ma’nosi “intiluvchi”, “da’vogar”; aspiranturada shug‘ullanuvchi, ya’ni nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish olib boruvchi shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan ot so‘z turkumiga doir daraja nomi. Mazkur termin tarixi XIX asr o‘rtalarida dengiz harbiy xizmatiga tayyorlanuvchi ma’nosida qo‘llanilgan, keyinchalik oktabr revolyutsiyasidan so‘ng, Rossiyada ilmiy xodimlar faoliyatini oshirish maqsadida joriy qilingan qonunlar sababli *aspirant* termini sobiq sovet davlatlarida nomzodlik dissertatsiyasi ustida ish olib boruvchi shaxslarga nisbatan ishlatila boshlanadi [“Aspirant”, 2024]. Lug‘aviy ma’no ko‘chishi bilan bog‘liq tarixiy semantik jarayonlarning ilmiy tadqiqari topilmaganligi bois, mazkur terminning ilmiy sohaga ko‘chishi lotin tilida “da’vogar” ma’nosida shaxsga nisbatan qo‘llanilishi sabablari ehtimoliy xulosalanishi mumkin. Ingliz tilida ham mazkur so‘z mavjud bo‘lib, rasmiy hujjatlarda aspirant so‘zi unvon ma’nosida qo‘llanilmaydi, aspirant so‘zi sifat va ot so‘z turkumlarida keladi va “da’vogar”, “intiluvchan” ma’nosini anglatadi [Merriam-Webster, n.d.]. Xususan o‘zbek tilida ham yaqin yillargacha shaxsga nisbatan unvon va darajani ifodalashda qo‘llanilgan, va aspirant so‘zining boshqa kontekstlarda ma’no ko‘chish holatlari topilmadi: “...*Aspirantlar, o‘qituvchilar, ekspert hamda talabalar bilan almashish...*” [O‘zResH va HindResH Almashuv dasturi, 2005]. So‘nggi yillarda oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir necha chora-tadbirlar sababli aspirantura tizimi bekor qilinib, tilimizga *PhD, DSc* kabi ingliz tilidagi terminlar kalkalash usuli orqali falsafa doktori, fan doktori kabi leksik birliklar qabul qilinadi. Shu sababli, yaqin yillarda aspirant so‘zidan rasmiy hujjatlarda foydalanish kuzatilmadi [O‘zRes VMQ-304-son qarori, 2017].

Pedagog – [yun. Παιδαγωγός – *paidagogos*] yunon tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda bolani boshqaruvchi ma’nosini beradi. Hozirda ta’lim mutaxassisi, bolalar va yoshlarni tarbiyalashda o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi va shu soha bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsni ifodalaydi [Madvaliyev, 2007]. O‘zbek tilida o‘qituvchi so‘zi bilan sinonimik tarzda qo‘llaniladi: “...*akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazlarida amalga oshiriladi*” [O‘zRes PQ-3290-son Qarori, 2017]. Talaffuzi va urg‘uning so‘nggi bo‘g‘iniga qo‘yilish jihatidan olib qaralsa hozirgi

o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelganligi haqiqatga yaqin. O‘zbek tilidan farqli ravishda, ingliz tilida ta’lim bilan bog‘liq matnlarda *pedagog* termini hozirda rasmiy hujjatlarda foydalanilishi kuzatilmadi. Ingliz tilida *pedagog* termini “teacher”, “tutor”, “schoolmaster” so‘zlari bilan sinonimik xususiyatga ega bo‘lsa ham, asosan o‘qituvchining pedantik va qattiqqo‘l sifatlariga urg‘u berishda shaxsga nisbatan qo‘llanilishi keltirilgan.

Rektor – lotinchadan “regere > rector” so‘zi boshqaruvchi, rahbar ma’nolarini anglatgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da rektor so‘zining monosemantik izohini ko‘rishimiz mumkin: “universitetlar va boshqa ayrim oliy o‘quv yurtlarining rahbari” [Madvaliyev, 2007]. Rasmiy hujjatlar kontekstida ham monosema ifodasi aniqlandi: “...bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi ko‘rsatkichlarini to‘liq ta’minlash uchun shaxsiy mas’uliyat tegishli oliy ta’lim muassasalari rektorlariga yuklanadi” [O‘zRes PQ-3290-son Qarori, 2017]. Rektor so‘zi o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan va faqat universitetning eng yuqori boshqaruvchisi, rahbari ma’nolarida qo‘llaniladi. Ingliz tilidagi “rector” so‘zi ham lotin tilidan kirib kelgan va hozirda 2 xil semantik ma’noda qo‘llaniladi [Cambridge, n.d.]: 1) Protestant cherkovlarida ma’lum bir cherkov mulozimi, cherkov an’analarini yurituvchi xodim: “...and the Incumbent or Incumbents of any such Vicarage or Vicarages shall thereupon become and be deemed to be the Rector or Rectors of such Parish or Parishes...” [UK PGA, 1822]; 2) Shotlandiyadagi kollej va universitetlarida eng oliy rahbar: “... To regulate the time, place, and manner of presenting and electing University officers, with power to ordain that in the election of the rectors of the Universities of Glasgow and Aberdeen the election shall be determined by the majority of the votes of all the students voting whenever the votes of the nations shall be equally divided” [UK PGA, 2016]. Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda (Shotlandiyadan tashqari) universitet rektori lavozimini anglatishda “chancellor” va “president” so‘zlaridan foydalaniladi. Yevropaning slavyan, nemis, fransuz, ispan va italyan tillarida esa univeristet rahbarlariga “rektor” termini foydalanib kelinadi [“Rector”, 2024].

Prorektor – [lot. Pro + rektor] rektor o‘rniga. Oliy o‘quv yurtlarda rektorning ma’lum soha bo‘yicha o‘rinbosari [Madvaliyev, 2007] Prorektor so‘zi yuqorida o‘rganilgan rektor so‘ziga lotincha “pro” old qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan va semantik jihatdan “rektor o‘rinbosari” ma’nosini anglatadi. Lotin tilidan rus tiliga va u orqali o‘zbek tiliga kirib kelgan. O‘zbek tilidagi qonun hujjatlarida quyidagicha misolda kelgan: “...akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo‘yicha prorektori, akademik litsey direktori va mas’ul xodimlariga o‘rnatilgan tartibda jarima qo‘llanilishi hamda ularning oylik maoshlaridan chegirib qolinishi nazarda tutilsin” [O‘zRes PQ-3290-son Qarori, 2017]. Ingliz tilida mazkur termin rasmiy hujjatlarda univeristet bilan bog‘liq shaxslarga ishlatilganligi aniqlanmadi. Chunki, ingliz tilida prorektor lavozimi o‘rnida *vice-chancellor*, *provost* kabi ekvivalentlari keladi (vice-chancellor va provost so‘zlari ham ingliz tilidagi lotincha o‘zlashmalar) [Oxford, n.d.b].

Direktor so‘zi ham lotincha “director” so‘zidan o‘zlashgan va o‘zbekchaga “yo‘naltirmoq; yo‘l ko‘rsatmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Lavozim termini sifatida

o‘zbek tilida asosan 2 xil ma’noda: korxonalar, tashkilot yoki muassasa rahbari va maktab rahbariga nisbatan qo‘llaniladi. Rasmiy hujjatlarda ham yuqoridagi semalarni ifodalagan matnlar bilan misollarni ko‘rishimiz mumkin: “*umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlariga o‘z o‘rinbosarlarini ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish, ajratilgan umumiy soatlar doirasida o‘quv rejalariga 15 foizgacha o‘zgartirish kiritish masalalarini mustaqil hal qilish huquqi beriladi*” [O‘zRes PF-79-son Farmoni, 2023], “*Agar jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo‘lsa va bunda jamiyat direktorining yoki kollegial ijro etuvchi organining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi*” [O‘zRes 310-II-son Qonuni, 2001]. Ingliz tiliga “director” termini lotin tilidan fransuz tili orqali o‘zlashgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi “direktor” termini ma’nolaridan bir holatda farqlanadi, ya’ni “director” so‘zi ingliz tilida eslab o‘tilgan ma’nolardan tashqari kino yoki teatr sahnalari yaratishda bosh rejissyorni ham anglatadi. Ingliz tilli rasmiy hujjat turlarida esa “korxonalar, tashkilot yoki muassasa rahbari” ma’nolarida qo‘llanilganligi aniqlandi: “*The statement of the company’s proposed officers required to be delivered to the registrar must contain the required: (a) the person who is, or persons who are, to be the first director or directors of the company*” [UK PGA, 2006].

Inspektor – lotin tilidagi “inspector” so‘zidan o‘zbek va ingliz tillariga o‘zlashtirilgan leksik birlik va “kuzatuvchi, nazoratchi” ma’nolarini ifodalaydi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da muayyan sohaga qarashli organ va shaxslar faoliyatining to‘g‘riligini yoki mavjud qonunlarning amalga oshirilishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxs sifatida izoh keltirilgan. Ingliz tilida ham 2 xil ma’noda izohlanadi: 1) biror vazifa yoki narsani nazorat qiluvchi shaxs; 2) politsiya xodimi. Davlat hujjatlarida “inspektor” termini quyidagicha holatda kelgan: “*O‘qotar qurol va patronlar hududiy ichki ishlar organining profilaktika inspektoriga topshirilgan taqdirda dalolatnoma hududiy ichki ishlar organining tezkor navbatchisi tomonidan ushbu profilaktika inspektori ishtirokida tuziladi*” [O‘zRes IIV buyrug‘i, 2017]. Ingliz tilidagi qonun hujjatida esa (1)da izohi keltirilgan ma’noda: “*An inspector may exercise the powers set out in this regulation for the purpose of assisting in carrying out the functions of the Secretary of State under Part 4A of the Energy Act 2008*” [UK SI, 2018]. Har ikkala tilda ham “inspektor” mansabi izohlarda keltirilgan ma’nolarni ifodalagan va semantik doirada qo‘llanilishiga ko‘ra har ikki tilda bir xil semantik doirada ma’no ifodalashi aniqlandi.

Ekspert – lotin tilidan “tajribali” deb tarjima qilinib, etimologiyasi *expertus* so‘ziga borib taqaladi, keyinchalik yevropa tillariga “ekspert, expert” shaklida o‘zlashgan [Oxford, n.d.a]. Hozirda o‘zbek va ingliz tillarida “sud-tergov organlari, tibbiy yoki ilmiy muassasalar tomonidan ekspertiza o‘tkazishga chaqirilgan muayyan soha mutaxassisi” ma’nosini anglatadi. Rasmiy hujjatlarda ekspert so‘zining gapda ishlatilish holatlari keltirilgan:

1. “*No party may call an expert or put in evidence an expert’s report without the*

court's permission” [<https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil/rules/part35>].

2. “Kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlanadigan kafedralar huzurida pedagog xodimlar va amaliyotchi mutaxassislardan iborat ekspert guruhlarini tuzish” [O‘zRes PQ-62-son Qarori, 2024].

3. “...shuningdek, o‘ziga xos individual rekvizitlarni, patronlarining turi va kalibrini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelganda ularni ko‘zdan kechirish uchun hududiy ichki ishlar organining ekspert-kriminalisti jalb etiladi” [O‘zRes IIV buyrug‘i, 2017].

4. “...jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan ekspertlar tomonidan mutaxassis fikrini berish ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish mexanizmlari sifatida qayd etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin” [O‘zRes VMQ-73-son Qarori, 2023].

Agent – lotin tilidagi “agens” so‘zidan (lug‘aviy ma‘nosi “bajaruvchi”) o‘zlashgan termin o‘zbek tilida quyidagicha polisemiyalarni anglatadi: 1) tashkilot, muassasa va shu kabilarning ma‘lum vazifalarni bajarish uchun tayinlangan vakili; 2) birovlar tomonidan qo‘yilgan, birovlarining manfaatlari uchun maxfiy xizmat qiladigan shaxs; 3) biror davlat razvedkasining maxfiy xodimi; josus, ayg‘oqchi [Madvaliyev, 2006a]. Rasmiy janrdagi matnlarda, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 221-son qarorida: “*tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari markazlari tomonidan ayrim turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatilishida agent sifatida ishtirok etishga ruxsat berilganligi*” [O‘zRes VMQ-221-son qarori, 2021] kelgan *agent* leksik birligi yuqoridagi izohlarning (1) bandiga muvofiq ma‘no kasb etgani kuzatiladi. Ingliz tilida *agent* so‘zi shaxsga nisbatan o‘zbek tilidagi kabi ma‘nolarni anglatadi. Misol uchun, AQSh qonunchiligidagi “Xorijiy agentlarni ro‘yxatga olish” to‘g‘risidagi hujjatda barcha o‘rinlarda *agent* so‘zidan “ma‘lum vazifalarni bajarish uchun tayinlangan vakil” ma‘nosini anglatuvchi sema sifatida foydalanilgan: “...*any person who acts as an agent, representative, employee, or servant, or any person who acts in any other capacity at the order, request, or under the direction or control, of a foreign principal...*” [UK PGA, 2023].

Rezident – lotincha *residens, residentis* so‘zlaridan ingliz va o‘zbek tillariga o‘zlashgan internatsionalizm sanaladi. Bu termin izohli lug‘atlar bir necha ma‘nolar anglatishi keltirilgan. Jumladan, 1) elchidan pastroq mavqega ega bo‘lgan diplomatik vakil; 2) biron davlatning boshqa bir xorijiy davlatda doimiy yashovchi fuqarosi; 3) biron davlat razvedkasining boshqa biror davlat hududida ish olib boruvchi vakili; 4) xorijiy bank, kompaniya firma va shu kabilarning boshqa mamlakatda doimiy ishlovchi, u yoki bu ishni amalga oshiruvchi vakili [Madvaliyev, 2007]. Rasmiy hujjatlarimizda faqat (2) bandagi izohlangan ma‘noda qo‘llanilgan varianti kuzatildi: “*Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o‘rinlarda — IT-park) rezidentlari tomonidan amalga oshirilishiga ruxsat etilgan faoliyat turlari ro‘yxatiga quyidagi qo‘shimcha yo‘nalishlar kiritilsin*” [O‘zRes PQ-162-son Qarori, 2023]. Ingliz tilida esa mazkur leksemaning ma‘nolari: 1) biror joyda doimiy yashovchi shaxs; 2) mehmonxona mijozlari; 3) hukumatning xorijdagi vakili; 4) kasalxonada

tajriba o‘taydigan meditsina mutaxassisi 5) maktab transportida qatnaydigan o‘quvchi; Ko‘p hollarda ingliz tilidagi og‘zaki nutqda “resident” so‘zi (1) banddagi ma‘noni anglatib keladi, faqatgina kontekstual nutqda yoki matnlarda sanab o‘tilgan boshqa ma‘nolarda ham uchramiz. Izlanishlar natijasida ingliz tilidagi rasmiy hujjatlarda “resident” so‘zi bilan bog‘liq (1) ma‘nosi ifodalangan misollar topildi: “*An estate of an individual is treated as a resident of the last State of which such individual was a resident, as determined under the rules of paragraph (b) of this section, prior to his death*” [CFR, 2024].

XULOSA

O‘rganilgan obyektlarimizda aniqlangan o‘zlashmalarning o‘zbek va ingliz tillaridagi semantik xususiyatlari bilan bog‘liq aniqlangan yangiliklarning umumiy xulosasi quyidagilardan iborat:

1. Ingliz tilidagi lotincha va yunoncha o‘zlashmalar son jihatdan o‘zbek tiliga qaraganda ko‘p (hozirgi ingliz tilida 25 mingga yaqin lotincha o‘zlashmalar aniqlangani keltirilgan; o‘zbek tilidagi lotincha va yunoncha o‘zlashmalarning statistikasi manbalarda topilmadi).

2. Ingliz tili rasmiy maqomda dunyoning bir necha mamlakatlarida rasmiy til hisoblanganligi uchun ham, ba‘zi bir lotincha va yunoncha so‘zlarning (masalan, *rezident*) polisemantik xususiyatlari aniqlandi, va mazkur o‘zlashmalar o‘zbek tilida esa ko‘pma‘nolilik jihatlari kuzatilmadi.

3. *Deputat, direktor* kabi so‘zlarning sememalarning ingliz va o‘zbek tillarida semantik qo‘llanilishi tubdan farq qilish holatlari aniqlandi.

4. *Magistr, prokuror, rektor, pedagog* kabi so‘zlar o‘zbek tilida faol foydalanilsa, ingliz tili lug‘atida bu kabi so‘zlar mavjud bo‘lsa ham, hozirgi adabiy nutqda passiv leksika ekanligi kuzatildi.

5. Ma‘lum bir leksik birlikning ikki tilda turlicha ma‘nolar kasb etishi, o‘zlashmaning retsiyent tilga ko‘chish jarayonida davr va makon tushunchalarining ta‘siri bilan bog‘liq xususiyatlari ham o‘rganildi. Bunda ingliz tiliga o‘rta ingliz davrida (Middle English) fransuz tili orqali o‘zlashgan aksariyat lotincha va grekcha so‘zlar xristian dini bilan bog‘liq terminlar bo‘lgani sababli ham ko‘pma‘nolilik mavjud. O‘zbek tiliga esa lotincha o‘zlashmalar asosan 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida nemis, ingliz va rus tillari orqali kirib kelishi o‘zlashmalarning odatda bir tushunchani anglatish holatlari o‘zlashmalarning polisemiyasiga qaraganda ko‘proq kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (03/23/837/0241-son). *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O‘zbekiston Respublikasining 310-II-son Qonuni. (2001-yil 6-dekabr). Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-22525>.
3. O‘zbekiston Respublikasining 682-son Qonuni. (2021-yil 20-aprel). Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-5378966>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-295-son Farmoni. (1991-yil 29-noyabr). Respublikada dehqon (fermer) xo‘jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/->

- 233867.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-306-son Farmoni. (1991-yil 29-dekabr). Erkin narx belgilash munosabati bilan aholini ijtimoiy himoya qilishga doir tadbirlar to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-233279>.
 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-son Farmoni. (2023-yil 26-may). Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6476175>.
 7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3290-son Qarori. (2017-yil 26-sentabr). Oliy ta‘lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-3357535>.
 8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-162-son Qarori. (2023-yil 24-may). Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6472548>.
 9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-62-son Qarori. (2024-yil 7-fevral). Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6794040>.
 10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-36-son qarori. (2015-yil 2-mart). Magistratura to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-2579469>.
 11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-304-son qarori. (2017-yil 22-may). Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-3213410>.
 12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-221-son qarori. (2021-yil 19-aprel). Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda agentlar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-5379372>.
 13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-73-son qarori. (2023-yil 21-fevral). Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/uz/docs/-6388692>.
 14. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Hindiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida Almashuv dasturi. (2005-yil 5-aprel). O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami (2-4-son). *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-1316225>.
 15. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug‘i (RR 2932). (2017-yil 28-sentabr). Muomalada bo‘lgan ro‘yxatga olinmagan o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilarini, portlovchi modda va portlatish qurilmalarini ichki ishlar organlari ixtiyoriga topshirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/en/docs/-3361753>.
 16. Abdullayev, F. (1972). *Til qanday rivojlanadi*. Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti.
 17. Advocatus. (2024, July 5). In *Wikipedia*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Advocatus>.
 18. Aspirant. (18 iyulya 2024 god). V *Academic.ru*. <https://semenov.academic.ru/73/%D0%B0%D1%81%D0%BF%D0%B8%D1%80%D0%B0%D0%BD%D1%82>.
 19. Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Holt, Rinehart & Winston.
 20. Bodette, M., & Lindholm, J. (2016, October 14). Who invented the president?. *Vermontpublic.org*. <https://www.vermontpublic.org/programs/2016-10-14/who-invented-the-president>.
 21. Dadaboyev, H. (2020). *O‘zbek terminologiyasi*. Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti.
 22. Deputat. (15 iyulya 2024 god). V *Wikipedia*. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%BF%D1%83%D1%82%D0%B0%D1%82>.
 23. Durkin, P. (2009). *The Oxford guide to etymology*. New York: Oxford University Press.
 24. Gast, V. (2012). Contrastive analysis: Theories and methods. In B.Kortmann (Ed.), *Dictionaries of Linguistics and Communication Science: Linguistic Theory and Methodology* (pp. 1–9). Berlin: Mouton de Gruyter.
 25. Haspelmath, M. (2010). Comparative concepts and descriptive categories in cross-linguistic studies. *Language*, 3(86), 663–687.
 26. Hogg, R., & Denison, D. (Ed.). (2006). *A history of the English language*. Cambridge: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511791154>.

27. Cambridge. (n.d.). Rector. In *Cambridge Dictionary*. Retrieved July 9, 2024, from <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/rector>.
28. Code of Federal Regulations. (2024). *26 CFR Chapter I Subchapter F*. Washington, D.C.: Internal Revenue Service, Department of Treasury. <https://www.ecfr.gov/current/title-26/chapter-I/subchapter-F>.
29. Congressional Research Service. (2016, November 30). *The congressional appropriations process: An introduction*. Washington: Congressional Research Service. <https://crsreports.congress.gov/product/pdf/R/R42388>.
30. Lotte, D.S. (1982). *Voprosy zaimstvovaniya i uporyadocheniya inoyazychnykh terminov i terminoelementov*. Moskva: Izdatel'stvo «Nauka».
31. Madvaliyev, A. (2006a). *O'zbek tilining izohli lug'ati (1-j.)*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
32. Madvaliyev, A. (2006b). *O'zbek tilining izohli lug'ati (2-j.)*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
33. Madvaliyev, A. (2007). *O'zbek tilining izohli lug'ati (3-j.)*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
34. Magister degree. (2024, July 16). In *Wikipedia*. https://en.wikipedia.org/wiki/Magister_degree.
35. Memorandum for the United States Trade Representative. (1995, December 6). Delegation of authority under section 321(c) of the North American free trade agreement implementation act. *Federal Register*, 60(236). <https://www.govinfo.gov/content/pkg/FR-1995-12-08/pdf/95-30209.pdf>.
36. Merriam-Webster. (n.d.). Aspirant. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved July 19, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/aspirant>.
37. Oxford. (n.d.a). Expert. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved June 18, 2024, from https://www.oed.com/dictionary/expert_v1?tl=true.
38. Oxford. (n.d.b). Prorector. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved June 20, 2024, from https://www.oed.com/dictionary/pro-rector_n?tl=true.
39. Procurator. (2024, July 11). In *Wikipedia*. [https://en.wikipedia.org/wiki/Procurator_\(ancient_Rome\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Procurator_(ancient_Rome)).
40. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi adabiy o'zbek tili*. Toshkent: "Universitet" nashriyoti.
41. Senate. (2024, July 15). In *Wikipedia*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Senate>.
42. Talaba. (2024-yil 2-iyul). *Wikipedia*'da. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Talaba>.
43. UK Immigration Rules. (2023, July 17). Statement of changes to the immigration rules: HC 1496, 17 July 2023. *Gov.uk*. <https://www.gov.uk/government/publications/statement-of-changes-to-the-immigration-rules-hc-1496-17-july-2023>.
44. UK Public General Acts. (1822, July 22). Church Building Act 1822. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/Geo4/3/72/enacted>.
45. UK Public General Acts. (2016, December 30). Universities (Scotland) Act 1889. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/Vict/52-53/55>.
46. UK Statutory Instruments. (2018, March 26). The works detrimental to navigation (powers and duties of inspectors) regulations 2018. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/uksi/2018/436/made>.
47. UK Public General Acts. (2023, February 7). Companies Act 2006. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/part/42>.
48. UK Public General Acts. (2024, May 17). Solicitors (Scotland) Act 1980 section 25A. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1980/46/section/25A>.
49. U.S. Government Publishing Office. (2006, March 9). *Public Law 109 - 177 - USA PATRIOT improvement and reauthorization act of 2005*. Washington: U.S. Government Publishing Office. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/PLAW-109publ177/pdf/PLAW-109publ177.pdf>.

REFERENCES

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. (2023). National database of legislative information (No. 03/23/837/0241). *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. Law of the Republic of Uzbekistan No. 310-II. (December 6, 2001). About limited liability and additional liability companies. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-22525>.
3. Law of the Republic of Uzbekistan No. 682. (2021, April 20). On regulatory legal documents. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-5378966>.
4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-295. (1991, November 29). On further strengthening of peasant (farm) holdings and state support of entrepreneurship. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-233867>.
5. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-306. (1991, December 29). About measures for social protection of the population in connection with free price setting. *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-233279>.
6. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-79. (2023, May 26). On measures to effectively organize the activities of the Ministry of Preschool and School Education and organizations within its system. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6476175>.
7. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-3290. (2017, September 26). On further improvement of the system of target training of candidates for admission to higher education institutions. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-3357535>.
8. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-162. (2023, May 24). On measures to increase the coverage and quality of digital services and digital transformation of sectors, sectors and regions. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6472548>.
9. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-62. (2024, February 7). On the measures to fundamentally improve the system of personnel training for economic sectors. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-6794040>.
10. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. CMR-36. (2015, March 2). About the approval of the Master's Degree Regulation. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-2579469>.
11. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. CMR-304. (2017, May 22). On measures to further improve the education system after higher education. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-3213410>.
12. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. CMR-221. (2021, April 19). On measures to organize the activity of agents in the provision of public services. *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-5379372>.
13. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. CMR -73. (2023, February 21). About the approval of the model regulation on the procedure for conducting forensic research. *Lex.uz*. <https://lex.uz/uz/docs/-6388692>.
14. Exchange program between the Government of the Republic of Uzbekistan and the Government of the Republic of India. (2005, April 5). Collection of international agreements of the Republic of Uzbekistan (Iss. 2-4). *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-1316225>.
15. Order of the Minister of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan (LN 2932). (2017, September 28). On approving the rules for handing over unregistered firearms and their ammunition, explosives and detonating devices to internal affairs bodies. *Lex.uz*. <https://lex.uz/en/docs/-3361753>.
16. Abdullayev, F. (1972). *How language develops*. Tashkent: Publishing House of 'Science' of Uzbekistan SSR.
17. Advocatus. (2024, July 5). In *Wikipedia*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Advocatus>.
18. Aspirant. (2024, July 18). In *Academic.ru*. <https://semenov.academic.ru/73/%D0%B0%D1%81%D0%BF%D0%B8%D1%80%D0%B0%D0%BD%D1%82>.
19. Bloomfield, L. (1933). *Language*. New York: Holt, Rinehart & Winston.
20. Bodette, M., & Lindholm, J. (2016, October 14). Who invented the president?. *Vermontpublic.org*. <https://www.vermontpublic.org/programs/2016-10-14/who-invented-the-president>.

21. Cambridge. (n.d.). Rector. In *Cambridge Dictionary*. Retrieved July 9, 2024, from <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/rector>.
22. Code of Federal Regulations. (2024). *26 CFR Chapter I Subchapter F*. Washington, D.C.: Internal Revenue Service, Department of Treasury. <https://www.ecfr.gov/current/title-26/chapter-I/subchapter-F>.
23. Congressional Research Service. (2016, November 30). *The congressional appropriations process: An introduction*. Washington: Congressional Research Service. <https://crsreports.congress.gov/product/pdf/R/R42388>.
24. Dadaboyev, H. (2020). *Uzbek terminology*. Tashkent: Publishing House of ‘Nodirabegim’.
25. Deputy. (2024, July 15). In *Wikipedia*. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B5%D0%BF%D1%83%D1%82%D0%B0%D1%82>.
26. Durkin, P. (2009). *The Oxford guide to etymology*. New York: Oxford University Press.
27. Gast, V. (2012). Contrastive analysis: Theories and methods. In B.Kortmann (Ed.), *Dictionaries of Linguistics and Communication Science: Linguistic Theory and Methodology* (pp. 1–9). Berlin: Mouton de Gruyter.
28. Haspelmath, M. (2010). Comparative concepts and descriptive categories in cross-linguistic studies. *Language*, 3(86), 663–687.
29. Hogg, R., & Denison, D. (Ed.). (2006). *A history of the English language*. Cambridge: Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511791154>.
30. Lotte, D.S. (1982). *Issues of borrowing and ordering foreign terms and term elements*. Moscow: Publishing House of ‘Science’.
31. Madvaliyev, A. (2006a). *An explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 1) Tashkent: State Scientific Publishing House of ‘National Encyclopedia of Uzbekistan’.
32. Madvaliyev, A. (2006b). *An explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 2) Tashkent: State Scientific Publishing House of ‘National Encyclopedia of Uzbekistan’.
33. Madvaliyev, A. (2007). *An explanatory dictionary of the Uzbek language* (Vol. 3) Tashkent: State Scientific Publishing House of ‘National Encyclopedia of Uzbekistan’.
34. Magister degree. (2024, July 16). In *Wikipedia*. https://en.wikipedia.org/wiki/Magister_degree.
35. Memorandum for the United States Trade Representative. (1995, December 6). Delegation of authority under section 321(c) of the North American free trade agreement implementation act. *Federal Register*, 60(236). <https://www.govinfo.gov/content/pkg/FR-1995-12-08/pdf/95-30209.pdf>.
36. Merriam-Webster. (n.d.). Aspirant. In *Merriam-Webster.com dictionary*. Retrieved July 19, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/aspirant>.
37. Oxford. (n.d.a). Expert. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved June 18, 2024, from https://www.oed.com/dictionary/expert_v1?tl=true.
38. Oxford. (n.d.b). Prorector. In *Oxford English Dictionary*. Retrieved June 20, 2024, from https://www.oed.com/dictionary/pro-rector_n?tl=true.
39. Procurator. (2024, July 11). In *Wikipedia*. [https://en.wikipedia.org/wiki/Procurator_\(ancient_Rome\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Procurator_(ancient_Rome)).
40. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Modern literary Uzbek language*. Tashkent: Publishing House of ‘University’.
41. Senate. (2024, July 15). In *Wikipedia*. <https://en.wikipedia.org/wiki/Senate>.
42. Student. (2024, July 2). In *Wikipedia*. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Talaba>.
43. U.S. Government Publishing Office. (2006, March 9). *Public Law 109 - 177 - USA PATRIOT improvement and reauthorization act of 2005*. Washington: U.S. Government Publishing Office. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/PLAW-109publ177/pdf/PLAW-109publ177.pdf>.
44. UK Immigration Rules. (2023, July 17). Statement of changes to the immigration rules: HC 1496, 17 July 2023. *Gov.uk*. <https://www.gov.uk/government/publications/statement-of-changes-to-the-immigration-rules-hc-1496-17-july-2023>.

45. UK Public General Acts. (1822, July 22). Church Building Act 1822. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/Geo4/3/72/enacted>.
46. UK Public General Acts. (2016, December 30). Universities (Scotland) Act 1889. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/Vict/52-53/55>.
47. UK Public General Acts. (2023, February 7). Companies Act 2006. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/part/42>.
48. UK Public General Acts. (2024, May 17). Solicitors (Scotland) Act 1980 section 25A. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1980/46/section/25A>.
49. UK Statutory Instruments. (2018, March 26). The works detrimental to navigation (powers and duties of inspectors) regulations 2018. *Legislation.gov.uk*. <https://www.legislation.gov.uk/uksi/2018/436/made>.